



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH DAVLAT QO'MITASI RAISING

### BUYRUG'I

2021 yil "10" dekabr

429 - son

Toshkent sh.

### Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir 2022-yilga kvotani tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - Davlat ekologiya qo'mitasi) to'g'risidagi Nizomning 39-bandi, O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi qonunlarining hamda Fanlar akademiyasining 2021-yil 6-dekabrda 4/1255-3395-son xulosasiga muvofiq va biologik resurslardan oqilona foydalanish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir 2022-yilga kvota 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishga 2022-yilga kvota 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Bioxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bosh boshqarmasi (Sadikov):

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishni kelishish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda taqdimnoma kiritsin;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni tabiiy muhitdan ajratib olishga doir ruxsatnoma uning amal qilish muddati tugagach (o'n kun ichida) tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan Davlat ekologiya qo'mitasiga ajratib olingan yovvoyi hayvonlar haqidagi hisobot bilan birga qaytarilishini ta'minlasin;

yovvoyi hayvonlarni tutishga doir kvotani Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasiga, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalariga yuborsin;

zarurat tug‘ilganda vaqtincha ruxsatnomalarni berilishini to‘xtatish, ov mavsumini yopishi, ov normalari va muddatlarini o‘zgartirish bo‘yicha taklif kiritsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari kvotalarni berilgan talabnomalarga muvofiq taqsimlasin hamda hayvonot dunyosidan foydalanishga doir ruxsatnomalarni bersin;


yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnoma uning amal qilish muddati tugagach (o‘n kun ichida), tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan ruxsatnomani bergan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hududiy organiga tutilgan yovvoyi hayvonlar haqidagi hisobot bilan birga qaytarilishi shuningdek, barcha hisobotlar umumlashtirilgan holda Davlat ekologiya qo‘mitasiga taqdim etilishi ta‘minlansin.

4. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha inspeksiyasi (Tagayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari hayvonot dunyosi obyektlarini tabiiy muhitdan ajratib olinishida tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirsin.

5. Ijro intizomini nazorat qilish va hujjat aylanishi bo‘limi (Temirov) mazkur buyruqni qo‘mitaning tarkibiy va hududiy bo‘linmalariga ma‘lumot va ijro uchun yetkazsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish rais o‘rinbosari J.Kazbekov zimmasiga yuklansin.

**Rais o‘rinbosari**



**I.Boqijonov**

Davlat ekologiya qo`mitasining  
2021 yil 10-dekabrda  
429 -sonli buyrug`iga  
1-ilova

**Yovvoyi hayvonlarni tutishga doir 2022 yilga ajratilgan kvota**

T/R	Hayvon turlari	O`lchov birligi	Soni
1	Yovvoyi cho`chqa - Ёввойи чўчка (кабан)	dona	571
2	Sibir tog` echkisi - Сибирь тоғ эчкиси (Горный козёл (козёл сибирский))	dona	100
3	Elik - Елик (косуля)	dona	20
4	Bo`rsiq - Бўрсик (барсук)	dona	483
5	Tulki - Тулки (обыкновенная лисица)	dona	400
6	Jayra - Жайра (дикобраз)	dona	150
7	Qum tovushqoni - Кум товушқони (заяц толай)	dona	22000
8	Chiya bo`ri - Чиябўри (шакал)	dona	2579
9	Bo`ri - Бўри (волк)	dona	160
10	Qirg`iy - Қирғий (ястреб перепелятник)	dona	10
11	Turumtoy - Турумтой (дербник)	dona	10
12	Sog`, ko`rqush - Соғ, кўркуш (сплюшка)	dona	30
13	Boyo`g`li - Бойўгли (домовый сыч)	dona	100
14	Quloqdor yaraloqqush - Кулоқдор япалоққуш (ушастая сова)	dona	10
15	Jig`oltoy - Жиголтой (чеглок)	dona	15
16	Miqqiy - Миккий (обыкновенная пустельга)	dona	10
17	Tosh qirg`iy - Тош қирғий (тювик)	dona	15
18	Qizil sug`ur - Қизил суғур (Сурок красный)	dona	10
19	Qirg`ovullarning Zarafshon qirg`ovulidan boshqa barcha kenja turlari - Қирғовуларнинг Зарафшон қирғовулидан бошқа барча кенжа турлари (Фазаны все подвиды кроме зарафшанского)	dona	21000
20	Yilqichi - Йилқичи (Авдотка)	dona	25
21	Himolay ulari - Ҳимолой улари (гималайский улар)	dona	10
22	Kaklik - Каклик (кеклик)	dona	38259
23	Kulrang g`oz - Кулранг ғоз (серый гусь)	dona	44000
24	Yovvoyi o`rdak - Ёввойи ўрдак (кряква)	dona	83040
25	Qo`ng`ir o`rdak - Қўнғир ўрдак (серая утка)	dona	250
26	Qizilbosh - Қизилбош (красноглазый нырок)	dona	2000
27	Olmabosh - Олмабош (красноносый нырок)	dona	45000
28	Olaqanot - Олақанот (связь)	dona	135

29	Qizil o`rdak - Қизил ўрдak (атайка)	dona	62
30	Churraklar - Чуураклар (чирки, кроме мраморного)	dona	60380
31	Katta qorabuzov - Катта қорабузов (большой баклан)	dona	21024
32	Qashqaldoq - Қашқалдоқ (Лысуха)	dona	50000
33	Qamishzor pastushogi, suv tovug`i - Қамишзор пастушоги, сув товуги (Камышница)	dona	600
34	Gov kaplar - Гов каптар (вахирь)	dona	27795
35	Suqsun - Суксун (широконоска)	dona	320
36	Yovvoyilashgan xonaki kaplar - Ёввойлашган хонаки каптар (одичавшие домашние голуби)	dona	32087
37	Tog` g`urragi - Тоғ гурраги (большая горлица)	dona	30000
38	Qumri - Кумри (кольчатая горлица)	dona	45982
39	Qorabovur - Қорабовур (чернобрюхий рябок)	dona	8500
40	Bedana - Бедана (перепел)	dona	15000
41	Suv botqoq qushlari - Сув ботқoқ кушлари (Болотная личь) фаъат Бекас ва Гарчнетга	dona	6000
42	Mayna - Майна	dona	800
43	Zag`izg`on - Зағизғон (сорока)	dona	50
44	Qora yaloq - Қора ялоқ (обыкновенный скворец)	dona	1000
45	Styuart dehqonchumchug`i - Стюарт дехқончумчуғи (овсянка Стюарта)	dona	20
46	Oddiy dehqonchumchiq - Оддий дехқончумчук (обыкновенная овсянка)	dona	100
47	Sariq dehqonchumchiq - Сарик дехқончумчук (желтая овсянка)	dona	50
48	Dumparast - Думпараст (Райская мухоловка)	dona	10
49	Janub bulbuli - Жануб булбули (южный соловей)	dona	100
50	Bo`zbosh sa`va - Бўзбош саъва (седоголовый щегол)	dona	3000
51	Qorabosh sa`va - Қорабош саъва (черноголовый щегол)	dona	100
52	Zarg`aldoq - Зарғалдоқ (обыкновенная иволга)	dona	100
53	Sayroqi moyqut - Сайроқи мойкут (певчая славка)	dona	100
54	Jeltogrudiy knyazek - Желтогрудый князек	dona	100
55	Varakushka - Варакушка	dona	100
56	Qoratomoq qorayaloq - Қоратомoқ қораялоқ (чернозобый дрозд)	dona	300
57	Qorashaqshaq - Қорашакшак (черный дрозд)	dona	200
58	Zaryanka - Зарянка	dona	100
59	Qizilto`sh - Қизилтўш (зяблик)	dona	300

60	Sariqbosh korolek - Сарикбош королек (Желтоголовый королёк)	dona	500
61	Buhoro chittagi - Бухоро читтаги (бухарская синица)	dona	100
62	Mo'ylovdor chittak - Мўйловдор читтак (усатая синица)	dona	200
63	Kanorchumchug'i - Канопчумчуғи (коноплянка или реполов)	dona	300
64	Chij - Чиж	dona	100
65	Dasht to'rg'ayi - Дашт тўрғайи (степной жаворонок)	dona	1000
66	So'fitorag'ay - Сўфитўрғай (хохлатый жаворонок)	dona	1400
67	Shohli to'rg'ay - Шохли тўрғай (рогатый жаворонок)	dona	100
68	Dala to'rg'ay - Дала тўрғайи (полевой жаворонок)	dona	1000
69	Kichik to'rg'ay - Кичик тўрғай (малый жаворонок)	dona	100
70	Oddiy qizilbosh chumchuq - Одий кизилбош чумчук (обыкновенная чечевица)	dona	1300
71	Yurok - Юрок (обыкновенный выюрок)	dona	200
72	Cho'l vyurogi - Чўл выюрги (буланый выюрок)	dona	100
73	Tilla rang kurkunak - Тилла ранг куркунак (золотистая Щурка)	dona	100
74	Qoraboshli sirchumchuq - Қорабошли сирчумчук (черноголовый чекан)	dona	150
75	Ko'lvor ilon - Кўлвор илон (гюрза)	dona	30
76	Charxilon - Чархилон (эффа)	dona	20
77	Niko'lskiy kaltakesakchasi - Никольский калтаетасакчаси (Ящурка Никольского)	dona	15
78	Hind taqaburuni - Ҳинд тақабурони (Индийский подковонос)	dona	15
79	Katta taqaburun - Катта тақабурун (Большой подковонос)	dona	15
80	Buhoro taqaburuni - Бухоро тақабурони (Бухарский подковонос)	dona	15
81	Oloy taqirko'zlisi - Олой тақирқўзлиси (Алайский ложный гологлаз)	dona	15
82	Yashil qurbaqa - Яшил қурбақа (зеленая жаба)	dona	50
83	Karakurt - Каракурт	dona	1500
84	Pyostryy skorpion - Пёстрый скорпион	dona	500
85	O'tkir quloqli ko'rshapalak - Ўткир қулоқли қўршапалак (Остроухая ночница)	dona	10

86	Uch rangli ko'rshapalak - Уч рангли кўршапалак (Трехцветная ночница )	dona	10
87	Mo'ydor ko'rshapalak, mo'ylabli ko'rshapalak - Мўйдор кўршапалак, мўйлабли кўршапалак (Усатая ночница)	dona	10
88	Osiyo kengqulog'I - Осиё кенгкулоги (Азиатская широкоушка)	dona	10
89	Shalpanquloq ko'rshapalak - Шалпангкулок кўршапалак (Бурый (обыкновенный ушан)	dona	10
90	Mitti netopir - Митти нетопир (Нетопырь-карлик )	dona	10
91	O'rta dengiz netopiri - Ўрта денгиз нетопири (Средиземный нетопырь)	dona	10
92	Ko'jsnsimon netopir - Кожансимон нетопир (Кожановидный нетопырь )	dona	10
93	Kechki ko'jan - Кечки кожан (Поздний горный кожан )	dona	10
94	Cho'l ko'jani - Чўл кожани (Пустынный кожан)	dona	15
95	Ikki rangki ko'jan - Икки рангли кожан (Двухцветный кожан )	dona	10
96	Zog'ora - Зоғора (сазан)	Г	45
97	Qizilko'z - Кизилкўз (вобла)	Г	30
98	Oqsla - Оксла (судак)	Г	45
99	Tovonbaliq - Товонбалик (карась)	Г	35
100	Oddiy qorabaliq - Оддий қорабалик (Маринка)	dona	30
101	Tovonbaliq - Товонбалик (карась)	dona	10
102	Qirraqorin - Қиррақорин (Востробрюшка)	dona	10
103	Soxta qumbaliq - Сохта кумбалик (Абботина, лжепескарь)	dona	10
104	Turkiston qumbalig'i - Туркистон кумбалиғи (Туркистанский пескарь)	dona	10
105	Ko'zli taxirbaliq - Кўзли тахирбалик (Глазчатый горчак)	dona	10

Davlat ekologiya qo'mitasining  
2021 yil 10-dekabrda  
429 -sonli buyrug'iga  
2-ilova

**O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini tabiiy yashash muhitidan ajratib olishga 2022 yilga ajratilgan kvota**

T/P	Hayvon turlari	Dona	Ajratilgan
1	Buxoro qo'yi - Бухоро қўйи (Бухарский горный баран)	dona	4
2	Buxoro bug'usi - Бухоро бугуси (Бухарский олень)	dona	8
3	Qizilqum arxari - Қизилқум архари (Баран Северцова)	dona	6
4	Jayron - Жайрон (джейран)	dona	8
5	Morxo'r - Морхўр (винторогий козел)	dona	4
6	Ko'k sug'ur - Кўк сугур (Сурок Мензибра)	dona	4
7	Yo'rg'a tuvaloq - Йўрга тувалоқ (дрофа-красотка)	dona	457
8	Yo'rg'a tuvaloq - Йўрга тувалоқ тухумлари (яйца дрофы-красотки)	dona	74
9	Amudaryo katta kurakburuni - Амударё катта куракбуруни (большой амударьинский лопатонос)	dona	10
10	O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi - Ўрта Осиё чўл тошбақаси (она) (Среднеазиатская черепаха маточая)	dona	3000
11	O'rta Osiyo ko'brasi - Ўрта осие кобраси (Среднеазиатская кобра)	dona	3
12	Bo'z echkamar - Бўз эчкемар (среднеазиатский серый варан)	dona	5
13	Qalqonli gekkoncha - Қалқонли гекконча (панцирный геккончик)	dona	5
14	Rustamov stink gekkoni - Рустамов сцинк геккони (сцинковый геккон Рустамова)	dona	10
15	Silliq gekkoncha - Силлик гекконча (Гладкий геккончик)	dona	10
16	Said-Aliev taqir to'garakboshi - Саид-Алиев тақир тўгаракбоши (Круглоголовка Саид-Алиева)	dona	10
17	Shtraux to'garakboshi - Штраух тўгаракбоши (Круглоголовка Штрауха)	dona	10
18	Farg'ona qum kaltakesagi - Фарғона қум калтакесаги (Ферганская песчаная ящурка)	dona	10
19	Kichik taqaburun - Кичик тақабурун (Малый подковонос)	dona	6